

Ushbu keltirib o'tilgan mezonlar tadqiqot ishini amalga oshirishda foydalanilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini asoslashga hamda ular asosida amalga oshirilgan tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning asosligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, nisbatan ko'plab omillar ta'siri ostida bo'lgan va nisbatan tavakkalchilik yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi rivojlanishini tadqiq qilishda mazkur mezonlardan foydalanishning ahamiyati ancha yuqori hisobalandi.

Qishloq xo'jaligini tadqiq qilishda turli statistik usullardan foydalanish, jumladan, regression-korrelyatsion tadqiqot usullarini qo'llash mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini baholash, turli ning oqibatlarini o'rganish, omillar ta'sirini baholash asosida sabab va oqibat tadqiqot usuliga tayangan holda aniq qiymatliklar asosida o'lchashga xizmat qiladi. Xususan, qishloq xo'jaligiga oid fanlarda sohaga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sirini baholash, olingan natijalar asosida xulosalar chiqarish, soha samaradorligini oshirish boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi masalalarini yechishda eng muhim va samarali bo'lgan usullardan biri sifatida qaralib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev Yo.A. *Statistika nazariyasi. Darslik, -T.; O'qituvchi, 2002. – b. 592.*
Butanova D. (2024). *Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.*
2. Butanova, D. R. (2023). *Issues of assessing the role of agriculture in providing economic growth in khorezm region. Актуальные вопросы общества, науки и образования (pp. 40-43).* Gulyamov S.S., Abdullaev A.M., Olimjonov A.U. *Vaqtli qatorlarning statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlashtirish. /B.To'rayevning umumiy tahriri ostida. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 284 bet*
3. Butanova, D. R. (2023). *Statistical analysis of agriculture development in khorezm region. Фундаментальная и прикладная наука (pp. 38-41).* Abdullaev I.S. *Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt. Fan. Dokt. Diss. Avtoreferati. – T.: 2017 – 67 bet*
4. Butanova D.R. *Qishloq xo'jaligi rivojlanish tendesiyalarini ekonometrik modellashtirish (Xorazm viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) diss. Avtoreferati. – U.: 2023- 29 bet*
5. Butanova D.R. *Mintaqada qishloq xo'jaligi rivojlanish tendesiyalarini ekonometrik modellashtirish. Monografiya - U.: «Khwarezm publication », 2024, 132 bet*

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNI OLDINI OLISH VA MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNING AHAMIYATI

O'rolova Nodirabegim

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Mintaqaviy iqtisodiyot ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil

"Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi (1998-yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi) [1]. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqarish kam mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; iqtisodiyot rivojlanishi bilann malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi. Mamlakat miqyosida 3-5% darajasidagi ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holat hisoblanadi. Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun aholi bandligini ta'minlash davlat dasturlari ishlab chiqiladi, korxonalar qurilib, yangi ish o'rinlari tashkil etiladi, xodimlarni yangi kasblarga o'qitish, qayta tayyorlash ishlari amalga oshiriladi, bandlikka yordam jamg'armasi tashkil qilinadi. To'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb qaraladi. Uning real hajmi iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi [2]. Ishsizlik natijasida mamlakatda migratsiyaning ko'payishi vujudga keladi. Chunki ishsiz aholi o'z mehnat kuchini chet el davlatlariga chiqish orqali sarflaydilar. Bugungi kunda O'zbekiston migratsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari qatorida qonuniy, tartibli va xavfsiz tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yaratish, xususan, ayol migrantlarning xavfsizligini ta'minlash, integratsiya va reintegratsiyani samarali tashkil qilishni takomillashtirish shular jumlasidandir. Keyingi yillarda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga jo'nab ketayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, ularga zarur huquqiy, ijtimoiy, axborot-maslahat yordami ko'rsatish va moddiy qo'llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi hamda "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonunlari fuqarolarning davlat ichki va tashqi mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi va kafolatlarini belgilab berdi. Shu bilan birga, quyidagi qonunosti hujjatlarida tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi masalalar mustahkamlangan [3]. Shuningdek, Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar, shu jumladan, fuqarolarning xorijda mehnat faoliyatini qonuniy va xavfsiz amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashtirildi [4].

Mamlakatimizda ishsizlikning oldini olish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish.

Birinchi navbatda qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste‘mol mollarini, mahalliy xom ashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag‘batlantirish.

Ikkinchidan, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo‘yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Uchinchidan, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda.

To‘rtinchidan, ishdan bo‘shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o‘qitishni tashkil etishni tubdan o‘zgartirish. Bunda ishdan bo‘shayotgan va ixtisosi bo‘lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o‘zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o‘rgatishga e‘tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o‘quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog‘ini yanada rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Beshinchidan, vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo‘lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o‘ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo‘lishga qaratiladi.

Ishsizlik bilan bog‘liq muammolar albatta har bir davlat oldidagi muammo hisoblanib, bevosita aholi migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladigan masala sifatida qarash mumkin. Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning xorijdagi mehnat faoliyatini qonuniy va xavfsiz amalga oshirish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishni huquqiy tartibga solishda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi sohasi qonunosti hujjatlaridan iborat bo‘lib, milliy qonunchilikdagi mehnat migrantlarining huquqlariga oid ayrim masalalarni xalqaro hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati mavjud.

Ikkinchidan, qonunchilik hujjatlarida tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ushbu sohani tartibga solishda ishtirok etadigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari doirasi, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida qo‘llanib kelinayotgan barcha tushunchalarning mazmuni va asosiy prinsiplar belgilab berilmagan.

Uchinchidan, fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi mehnat faoliyatini tashkil etish, ularning huquq va majburiyatlari, uyushgan holda ishga joylashtirish, uyushgan holda ishga joylashtiriladigan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy kafolatlar, chet elda huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari turli qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan.

To‘rtinchidan, chet ellik fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyati “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solingan, biroq ushbu sohadagi munosabatlar “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonun asosida tartibga solishni taqozo qiladi.

Beshinchidan, amaldagi qonunchilikda “labor-migration” axborot tizimini yuritish, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini monitoring qilish tartibini belgilab beruvchi normalar tarqoq holda bo‘lib, ularni yagona tizimga keltirish talab etiladi. Ishsizlik darajasiga bir qancha omillar tasir ko‘rsatadi: mehnat haqining pastligi, mehnat sharoitlari yaxshi emasligi, ish haqining vaqtida berilmasligi, ish joylarini qisqartirishlar va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari barqarorlashayotgan davrda ishsizlikning bolishi tabiiy holatdir. Chunki ishchi kuchiga bolgan talabning taklifiga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bolgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi. Ish bilan band bolmagan shaxslarni yangi kasblarga orgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish mehnat birjasi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-51887>
2. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. –T.: «__» nashriyoti, 2020. 788bet.
3. <https://lex.uz/docs/-5055690>
4. <https://lex.uz/docs/-5841063>

ПРОБЛЕМЫ ДЕМОГРАФИИ И ЭКОНОМИКИ ТРУДА В РАМКАХ СТРАТЕГИИ “УЗБЕКИСТАН - 2030”

Маликов Шохрух

студент факультет Бухгалтерского учета и экономики

Специальность: Цифровая экономика

“Ташкентский Государственный Экономический Университет”

Стратегия “Узбекистан – 2030” представляет собой масштабный план, направленный на ускоренную модернизацию и повышение качества жизни в Узбекистане. Основные цели стратегии включают устойчивый экономический рост, развитие человеческого капитала, интеграцию современных технологий и улучшение управления в государственном и частном секторах, а также повышение международной конкурентоспособности национальной экономики.

Однако, достижение этих целей зависит от учета демографических и трудовых аспектов, которые существенно влияют на экономический потенциал страны. Высокий демографический рост и значительная доля молодежи требуют инвестиций в образование и рабочие места, а также адаптации образовательной системы к требованиям рынка труда. Проблемы экономики труда, включая теневую занятость и миграцию квалифицированных кадров, требуют эффективных государственных мер по регулированию рынка труда и улучшению его привлекательности.